

**PORTLASH VA PORTLASH-YONISH XAVFI BOR OBYEKTlarda OLOVLI
ISHLARNI XAVFSIZ OLIV BORILISHINI TASHKIL QILISH**

**ОРГАНИЗАЦИЯ БЕЗОПАСНОГО ПРОВЕДЕНИЯ ПОЖАРНЫХ РАБОТ НА
ВЗРЫВНЫХ И ВЗРЫВОПОЖАРНЫХ ОБЪЕКТАХ**

**ORGANIZING THE SAFE CONDUCT OF FIRE WORKS IN EXPLOSION AND
EXPLOSION-FIRE OBJECTS**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi*

Bozorov G'iyosjon Abdug'ani o'g'li
giyosjon2705@gmail.com

Anotatsiya: *Bugungi kunda dunyoda xususan, O'zbekiston Respublikasida ham sanoat tarmoqlari rivojlanmoqda. Shu bilan birga sanoat tarmoqlari korxonalarida texnogen turdagi avariylar sodir bo'lish ham ortib bormoqda. Mazkur maqolada portlash va portlash-yonish xavfi bor obyektlarda olovli ishlarning xavfsiz olib borilishiga oid tadbirlar va erishiladigan natijalar yoritib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *portlash, portlash-yonish, jamoat xavfsizligi, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, kimyo sanoati, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligi.*

Аннотация: *Сегодня в мире, особенно в Республике Узбекистан, развиваются промышленные отрасли. В то же время увеличивается и количество техногенных аварий на промышленных предприятиях. В данной статье освещены мероприятия и результаты, которых необходимо достичь по обеспечению безопасного проведения пожарных работ на объектах с опасностью взрыва и взрывопожароопасности.*

Ключевые слова: *взрыв, взрыво-пожар, общественная безопасность, чрезвычайные ситуации техногенного характера, химическая промышленность, гражданская защита, пожарная безопасность.*

Annotation: *Today, industrial sectors are developing in the world, especially in the Republic of Uzbekistan. At the same time, the occurrence of man-made accidents in industrial enterprises is also increasing. In this article, measures and the results to be achieved regarding the safe conduct of fire works in objects with a risk of explosion and explosion-burning are highlighted.*

Key words: *explosion, explosion-fire, public safety, man-made emergencies, chemical industry, civil protection, fire safety.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga

itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda. Jamoat xavfsizligini ta'minlash, fuqorolarimizning tinch va osoyishta yashashi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2021 yil 29-noyabr kunidagi PF-27 sonli farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonda Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida "aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, fuqaro muhofazasi, yong'in xavfsizligini ta'minlashda aholining ko'nikmalarini shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish" belgilab berilgan.

Konsepsiyani amalga oshirishning pirovard natijasida jamoat xavfsizligini, aholining tinchligi va osoyishlatiligini ta'minlashning sifat jihatdan yangi tizimini samarali tatbiq etish, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlashning ishonchli va samarali mexanizmlarini joriy etish hisoblanadi, deyiladi konsepsiyada.

2002-yilda O'zbekiston Respublikasida Sanoatda 1467 ta o'rta va yirik ishlab chiqarish korxonalar faoliyat yuritgan bo'lsa bugungi kunga kelib ularning soni soni 62 mindan oshdi.

Birgina kimyo sanoatining yirik zavodlari oladigan bo'lsak ularning aksariyati tuman markazlari viloyat markazlari, yirik shaharlar va tuman markazlarida joylashgan. Masalan "Farg'onaazot" AJ Farg'ona viloyati Farg'ona shahri Sanoat ko'chasida, "Maxam-Chirchiq" AJ Toshkent viloyati Chirchiq sharida joylashgan.

Sanoat korxonalarining aksariyat qismi turli kimyoviy moddalar, tez alanga oluvchi moddalar yoki yuqori bosimli gazlar asosida ishlaydi. Bunday korxonalarda turli avariyaalarning sodir bo'lishi yirik yong'inlar yoki portlashga sabab bo'lishi mumkin. Bunga misol sifatida 2021-yil 20-yanvar kuni Yangi-Angren issiqlik elektr stansiyasining qozon agregatida ko'mir-kukuni havo aralashmasining chaqnashi sodir bo'lishi, Chirchiq shahrida joylashgan "Maxam-Chirchiq" AJning Ammiak-1 ishlab chiqarish sexi sintez bo'linmasida 2022-yil 4-oktabr kuni qisqa portlash yuz bergan. Natijada sexning sintez kollonnasida yong'in kelib chiqqan. Bu kabi misollarni dunyo va mamlaktimiz miqyosida juda ko'plab keltirishimiz mumkin.

Kelgusida sanoat korxonalarida portlash va portlash-yonish ishlarini oldini olish maqsadida bir qator chora tadbirlar mavjud.

-korxonalaridagi olovli ishlarni olib borilishida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javobgarlikni korxonalar rahbarlariga,

hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash uchun belgilangan tartibda javobgar etib tayinlangan shaxslarga yuklatish;

-portlash xavfi va portlash-yonish xavfi bor obyektlarda olovli ishlarni olib borishga kamdan-kam hollarda, bu ishlar uchun ajratilgan maxsus doimiy joylarda bu ishlarni olib borish mumkin bo'lmasa va faqat obyektida yong'in xavfsizligi uchun javobgar shaxsning yozma ruxsatnomasi bilan (ishlab chiqarish, sex, qurilma rahbari va shu kabilar) bosh muhandis, yoki uning ishlab chiqarish bo'yicha o'rinbosari, yoki ishlab chiqarish boshlig'i tasdiqlagan ruxsatnomasi bo'lganda, ruxsat berish;

-har bir korxonada texnika xavfsizligi guruhi (bo'limi) yo'riqnomaga to'liq amal qilgan holda olovli ishlarni olib borishi kerak bo'lgan ishlab chiqarishlar, sexlar, bo'linmalar, uchastkalar va shu kabilar ro'yxatini tuzishlari kerak. Bunday obyektlar ro'yxati hududiy yong'in o'chirish organi bilan kelishilgan va korxonada bosh muhandisi tomonidan tasdiqlangan bo'lishi;

- 1995-yil 18-sentabrda tasdiqlangan "Sanoat korxonalari yong'in xavfsizligi Qoidalari"ni hisobga olgan holda korxonalarda ishlab chiqarishning va mahalliy sharoitning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, olovli ishlarni xavfsiz olib borish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqarilishi kerak;

-portlash xavfi va portlash-yonish xavfi bor obyektlarda olovli ishlar faqat kunduz kuni amalga oshirilishi kerak (falokat holatlaridan tashqari).

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak yuqori ko'rsatilgan chora tadbirlarni amalga oshirish natijasida texnogen falokatlarning oldini olish va quyidagilarga erishish mumkin:

korxonalarining uzluksiz ishlashi;

korxonaning mol mulki, jihozlari va ishlab chiqarish vositalarining ishdan chiqishi va yaroqsiz holga kelishining oldini olish;

ishchi va xodimlarning sog'lig'i va hayotini asrash;

korxonada atrofida joylashgan aholining hayoti, sog'lig'i va mol mulkini asrash;

ekologiya va atrof muhitga salbiy ta'sirlarning oldini olish.

Mamlakatda xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakillantirish nihoyatda dolzarb vazifadir. Bir so'z bilan aytganda mamlakatimiz, shahrimiz, har bir mahallada va har bir oilada tinchlik va osoyishtalikni yanada mustahmalashga barchamiz birdek ma'sulmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAHIFALARI RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29-noyabr kunidagi PF-27 sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-oktyabrdagi 649-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi “Sanoatkontexnazorat” boshlig‘ining 2009-yil 4-may kunidagi 89-sonli buyrug‘i. (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishilgan holda texnik hujjat deb topilgan, 2009-yil 29-maydagi 20-15-200/13-son)

5. Hayot xavfsizligi faoliyati, M. Tojiyev, I. Nigmatov

6. https://gov.uz/oz/miit/activity_page/sanoat

7. <https://minenergy.uz/uz/news/view/2166>